


## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Ellikqal'a tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 402,7 mlrd. so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,0 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 235,9 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 yil yanvar-dekabriga nisbatan 117,0 foizni tashkil etdi. Jumladan, 91,0 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib umumiy hajmga nisbatan 38,6 % ni tashkil qilib, 142,8 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2020 yil yanvar-dekabriga nisbatan mosravishda 100,9 foiz va 131,7 foiz) ishlab chiqarildi va umumiy hajmga nisbatan 60,5 % ni tashkil qildi, shuningdek aroq va sharob mahsulotlari ishlab chiqarish 2,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan 0,9 % ni tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin (2020 yil yanvar-dekabriga nisbatan mosravishda 70,0 foiz).


### 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, foizda



## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulishi


Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholi bandligi va real daromadlarini oshirishda, resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda, ijtimoiy guruhlar daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga ham, iste'molchi talabi o'zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo'lib, iste'mol bozorida muvozanatni ushlab turishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida tumanda 402,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi amalga oshirilgan bo'lib, shundan 224,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmning 55,6 % ni kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

### Yanvar-dekabr oylarida Ellikqal'a tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi (mlrd. so'mda)



Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Ellikqal’a tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 402,7 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o‘sish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,0 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga nodavlat sektorida 402,7 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 100,0 % tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida**  
(foiz hisobidagi ulushi)



■ Hususiy mulk

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Qoraqalpog'iston Respublikasi va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Ellikqal'a tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 402,7 mlrd. so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 2,4 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 2466,2 ming. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, tumanda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 235,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasining jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishida 7,9 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari aholi jon boshiga 1445,0 ming. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,0 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.